Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 62-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62

UO‘K: 330.837:336.74(575.1)

RAQAMLI TO‘LOVLARNING YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI

DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
“International School of Finance Technology and Science” instituti
İqtisodiyot va kompyuter injiniringi kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)
E-mail: ibrohimsofiya2022@gmail.com
ORCID: 0009-0006-5614-8591

Annotatsiya. Maqolada raqamli to‘lov tizimlarining transaksiya xarajatlarini pasaytirish va yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishdagi institutsional roli tadqiq etilgan. Markaziy bankning 2020–2025-yillar ma’lumotlari asosida naqd pul ulushi, terminal tushumlari va kartalardan naqdlashtirish dinamikasi tahlil qilingan, raqamli to‘lov muhitini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: institutsional iqtisodiyot; transaksiya xarajatlari; raqamli to‘lovlar; naqd pulsiz hisob-kitob; yashirin iqtisodiyot; norasmiy sektor; to‘lov infratuzilmasi; moliyaviy texnologiyalar; soliq ma’murchiligi; institutsional ishonch; naqd pul talabi.

Аннотация. В статье исследуется институциональная роль цифровых платёжных систем в снижении трансакционных издержек и сокращении масштабов теневой экономики. На основе данных Центрального банка за 2020–2025 годы проанализирована динамика доли наличных денег, терминальных поступлений и обналичивания средств с карт, разработаны предложения по совершенствованию цифровой платёжной среды.
Ключевые слова: институциональная экономика; трансакционные издержки; цифровые платежи; безналичные расчёты; теневая экономика; неформальный сектор; платёжная инфраструктура; финансовые технологии; налоговое администрирование; институциональное доверие; спрос на наличные.

Abstract. The article examines how digital payment systems lower transaction costs and shrink the shadow economy. Using Central Bank data for 2020–2025, it analyses the cash share of money supply, terminal receipts and card cash withdrawals, and proposes measures to improve the digital payment environment.
Keywords: institutional economics; transaction costs; digital payments; cashless settlements; shadow economy; informal sector; payment infrastructure; financial technologies; tax administration; institutional trust; cash demand.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotida har bir bitim ikki tomon o‘rtasidagi oddiy almashuvdan iborat bo‘lib ko‘rinsa-da, uning ortida sherik qidirish, tovar sifatini tekshirish, hisob-kitobni amalga oshirish va kelishuv bajarilishini nazorat qilish bilan bog‘liq ko‘zga ko‘rinmas xarajatlar yashiringan. R. Kouz bu xarajatlarni birinchi bo‘lib iqtisodiy tahlil markaziga olib chiqqan bo‘lsa [3], O. Uilyamson ularni bitimlarni boshqarish tuzilmasini tanlashning asosiy mezoniga aylantirgan [4]. D. Nort esa institutlarning asosiy vazifasi aynan shu xarajatlarni pasaytirish orqali ayirboshlashni kengaytirishdan iborat ekanini ta’kidlagan [5]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, to‘lov tizimi texnik xizmat emas, balki jamiyatdagi ayirboshlash qoidalarining moddiy tashuvchisi, ya’ni institutsional infratuzilmadir.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bank kartalari, QR-kod orqali to‘lov, mobil ilovalar va tezkor pul o‘tkazmalari kundalik hayotning odatiy qismiga aylandi. “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun [1] va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi [2] raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Biroq naqd pul hamon muomalada sezilarli o‘rin egallaydi: savdo va xizmatlar sohasidagi tushumlarning yarmidan ko‘pi 2025-yilda ham naqd shaklda bankka kelib tushgan [18]. Naqd hisob-kitob esa iz qoldirmaydi, shu sababli u soliqdan yashirilgan faoliyat va norasmiy bandlik uchun eng qulay muhit hisoblanadi [6; 9].

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli to‘lov tizimlarining transaksiya xarajatlariga va yashirin iqtisodiyot ko‘lamiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmini institutsional nazariya asosida ochib berish hamda O‘zbekiston ma’lumotlari misolida bu mexanizm qay darajada ishlayotganini baholashdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha qo‘yilgan: raqamli to‘lovlar ulushining ortishi naqd pulga bo‘lgan talabni va kartadagi mablag‘larni naqdlashtirish odatini qanchalik kamaytirmoqda, bu jarayonni chuqurlashtirish uchun qanday institutsional shart-sharoitlar zarur?

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyotni o‘lchash va uning sabablarini aniqlash bo‘yicha ilmiy adabiyotda naqd pulga bo‘lgan talab usuli alohida o‘rin tutadi. V. Tanzi AQSh misolida yashirin faoliyat asosan naqd shaklda amalga oshirilishini, shu bois soliq yukining oshishi naqd pul talabini ham oshirishini ko‘rsatib bergan [6]. F.Shnayder va D. Enste o‘nlab mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, yashirin iqtisodiyotning asosiy omillari sifatida soliq va ijtimoiy to‘lovlar yuki, tartibga solishning murakkabligi hamda davlat institutlariga ishonchning pastligini ajratib ko‘rsatgan [7]. L. Medina va F. Shnayder 158 mamlakat bo‘yicha 1991–2015-yillar ma’lumotlarini qamrab olgan tadqiqotda yashirin iqtisodiyot ulushi institutsional sifat yuqori bo‘lgan mamlakatlarda barqaror ravishda pastroq ekanini qayd etgan[8].

Naqd pul va norasmiy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik K. Rogoffning “Naqd pul la’nati” asarida eng keskin shaklda ifodalangan. Muallif yirik nominaldagi banknotlar asosan soliqdan qochish va noqonuniy bitimlarga xizmat qilishini, shu sababli naqd pul muomalasini bosqichma-bosqich cheklash davlat uchun foydali ekanini asoslagan [9]. Shu bilan birga, u naqd pulning to‘liq bekor qilinishi moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan aholi qatlamlari uchun xavf tug‘dirishini ham e’tirof etadi.

Raqamli to‘lovlarning transaksiya xarajatlariga ta’sirini empirik jihatdan eng yaxshi ko‘rsatgan tadqiqotlardan biri V. Jek va T. Surining Keniyadagi M-Pesa mobil pul tizimiga bag‘ishlangan ishidir. Mualliflar mobil pul o‘tkazmalari xarajatlari pasaygach, uy xo‘jaliklari daromad zarbalariga qarshi bir-birini ancha samarali sug‘urta qila boshlaganini aniqlagan [10], keyingi tadqiqotda esa bu tizim aholining bir qismini qashshoqlikdan chiqarishga hissa qo‘shganini ko‘rsatgan [11]. Bu natijalar raqamli to‘lovni oddiy qulaylik emas, balki ijtimoiy

hamkorlik doirasini kengaytiruvchi institut sifatida ko‘rish mumkinligini tasdiqlaydi.

Raqamli to‘lovlar va soliq intizomi o‘rtasidagi aloqa ham adabiyotda yetarlicha o‘rganilgan. J. Immordino va F. Russo Yevropa mamlakatlari ma’lumotlari asosida kartali to‘lovlar ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘idan bo‘yin tovlash darajasi past ekanini aniqlagan [12]. G. Gondroyannis va D. Papaoykonomu Gretsiya misolida karta orqali to‘lovlarning ko‘payishi QQS tushumlarini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatgan [13]. Jahon bankining Global Findex tadqiqoti esa raqamli to‘lovlar moliyaviy inklyuziyaning asosiy kirish eshigi bo‘lib xizmat qilayotganini qayd etadi [14].

Institutsional nazariya doirasida yangi yo‘nalish sifatida S. Devidson, P. de Filippi va J. Pottsning blokcheyn texnologiyasini “ishonchni ta’minlovchi yangi institutsional texnologiya” sifatida talqin etuvchi yondashuvini ko‘rsatish mumkin [17]. Ular raqamli reyestrlar shartnoma ijrosini nazorat qilish xarajatlarini kamaytirib, firma, bozor va davlatdan farqli yangi koordinatsiya shaklini vujudga keltirishini ta’kidlaydi. Mahalliy adabiyotda B. Berkinov transaksiya xarajatlari tasnifi va yashirin iqtisodiyotning institutsional omillarini O‘zbekiston sharoitiga tatbiqan yoritgan [15], A. Shastitko esa transaksiya xarajatlari nazariyasining metodologik asoslarini batafsil tahlil qilgan [16].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotga ta’siri haqidagi tadqiqotlar asosan rivojlangan mamlakatlar yoki Afrika tajribasiga tayanadi. O‘zbekistonda esa so‘nggi yillardagi tez raqamlashuvni transaksiya xarajatlari nazariyasi nuqtai nazaridan baholovchi ishlar kam. Ushbu maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda institutsional tahlil, qiyosiy va dinamik tahlil hamda oddiy korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida transaksiya xarajatlarining uch guruhga bo‘linishi qabul qilindi: qidiruv va axborot xarajatlari, o‘lchash va hisob xarajatlari, shartnoma ijrosini nazorat qilish va himoya xarajatlari [4; 15]. Har bir guruh bo‘yicha naqd, kartali va mobil to‘lov shakllari muallif tomonidan sifat jihatidan qiyoslandi.

Empirik qism uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining naqd pul muomalasi bo‘yicha sharhlarida e’lon qilingan va rasmiy nashrlarda keltirilgan 2020–2025-yillar ko‘rsatkichlaridan foydalanildi [18–21]. Tahlil uchun uchta ko‘rsatkich tanlandi: naqd pulning umumiy pul massasidagi ulushi, banklarga kelib tushgan tushumlar tarkibida terminal va mobil ilovalar orqali tushumlar ulushi hamda bank kartalariga tushgan mablag‘larning naqdlashtirilgan qismi. Birinchi ko‘rsatkich Tanzining naqd pul talabi yondashuvidagi bilvosita indikatorga mos keladi [6], qolgan ikkitasi esa raqamli to‘lovlar chuqurligini ifodalaydi. Kuzatuvlar soni kam bo‘lgani sababli hisoblangan korrelyatsiya koeffitsientlari sababiy bog‘liqlik isboti sifatida emas, balki yo‘nalishni ko‘rsatuvchi tavsifiy o‘lchov sifatida talqin qilinadi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

TAHLİL VA NATİJALAR

Avvalo, turli to‘lov shakllarining transaksiya xarajatlari tarkibini qiyoslaymiz. Naqd pul bilan bitim tuzishda sotuvchi va xaridor bir-birini tanimasligi mumkin, ammo hisob-kitobning o‘zi bir zumda yakunlanadi. Shu bilan birga, naqd pulni sanash, saqlash, inkassatsiya qilish, qalbaki banknot xavfini kamaytirish va yo‘qotishdan himoyalash bilan bog‘liq xarajatlar ancha yuqori. Eng muhimi, naqd bitim izsiz qoladi: nizo kelib chiqqanda to‘lov faktini isbotlash qiyin, davlat uchun esa bitimni soliqqa tortish imkoniyati cheklanadi. Raqamli to‘lovda buning aksi kuzatiladi (1-jadval).

1-jadval

Turli to‘lov shakllarida transaksiya xarajatlarining qiyosiy tavsifi


Xarajat turi	Naqd pul	Bank kartasi (POS)	Mobil ilova / QR
Qidiruv va axborot	O‘rtacha: savdo nuqtasini jismonan topish zarur	O‘rtacha	Past: onlayn katalog, masofaviy to‘lov
O‘lchash va hisob	Yuqori: sanash, inkassatsiya, qalbaki pul xavfi	Past: avtomatik hisob, elektron chek	Past: avtomatik hisob, elektron chek
Shartnoma ijrosi va himoya	Yuqori: to‘lov faktini isbotlash qiyin	Past: tranzaksiya yozuvi saqlanadi	Past: yozuv va chargeback imkoniyati
Davlat uchun kuzatuv imkoniyati	Juda past	Yuqori	Yuqori
Foydalanuvchi uchun asosiy to‘siq	Xavfsizlik, yo‘qotish	Terminal mavjudligi, komissiya	Raqamli savodxonlik, internet

Manba: muallif tomonidan [4; 9; 10; 15] asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli to‘lovlar o‘lchash va himoya xarajatlarini keskin kamaytiradi, ammo foydalanuvchi oldiga yangi turdagi to‘siqlarni qo‘yadi: terminal o‘rnatish va xizmat ko‘rsatish komissiyasi, internet sifati, raqamli savodxonlik. Demak, raqamli to‘lovga o‘tish faqat texnologik masala emas. Agar sotuvchi uchun karta orqali to‘lov qabul qilish naqd puldan qimmatroq tushsa yoki xaridor elektron tizimga ishonmasa, bozor ishtirokchilari naqd shaklni tanlashda davom etadi. Bu holat Nortning “rasmiy qoidalar norasmiy cheklovlar bilan muvofiqlashmasa, kutilgan natija bermaydi” degan xulosasini yana bir bor tasdiqlaydi [5].

Endi O‘zbekistondagi amaliy ko‘rsatkichlarga murojaat qilamiz. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, naqd pulning umumiy pul massasidagi ulushi 2020-yil oxirida 23 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yil yakunida 20 foizgacha tushgan [21]. 2022-yilda bu ko‘rsatkich vaqtincha 22,3 foizgacha ko‘tarilgan, keyingi yillarda esa barqaror pasayib, 2023-yil oxirida 21,5 foiz, 2024-yil oxirida 19,2 foiz, 2026-yil 1-yanvar holatiga esa 18,1 foizni tashkil qilgan [18; 19; 20]. 2022-yildagi vaqtinchalik o‘sishni mintaqadagi geosiyosiy vaziyat sababli mamlakatga kirib kelgan pul o‘tkazmalari va aholining naqd valyuta operatsiyalari faollashgani bilan izohlash mumkin.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari [18–21] asosida muallif tomonidan tuzilgan. 2024-yil uchun naqdlashtirish ulushi muallif hisob-kitobi.

1-rasm. O‘zbekistonda naqd pul ulushi va raqamli to‘lovlar chuqurligi ko‘rsatkichlari dinamikasi, foizda

1-rasmdan ko‘rinadiki, 2022–2025-yillarda uchala ko‘rsatkich ham bir xil yo‘nalishda harakatlangan. Banklarga kelib tushgan tushumlar tarkibida terminal va mobil ilovalar orqali tushumlar ulushi 2022-yildagi 34 foizdan 2025-yilda 43 foizgacha oshgan. Savdo va xizmatlar sohasida bu ko‘rsatkich yanada yuqori bo‘lib, 2024-yildagi 44 foizdan 2025-yilda 48 foizga yetgan [18]. Ayni paytda bank kartalariga tushgan mablag‘larning naqdlashtirilgan qismi 2022-yildagi 26,9 foizdan 2023-yilda 24 foizga [19], 2025-yilda esa 19 foizga qadar qisqargan [18]. Boshqacha aytganda, kartaga tushgan har besh so‘mdan to‘rttasi endi naqd pulga aylantirilmasdan raqamli shaklda aylanmoqda.

2-jadval

Raqamli to‘lovlar chuqurligi va naqd pul ulushi o‘rtasidagi bog‘liqlik (2022–2025-yillar)

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Naqd pulning pul massasidagi ulushi, %	22,3	21,5	19,2	18,1
Terminal va ilovalar orqali tushumlar ulushi, %	34	38	40	43
Kartalardan naqdlashtirilgan mablag‘ ulushi, %	26,9	24,0	21,9	19,0
Bank kartalariga tushgan mablag‘lar, trln so‘m	≈554	≈789	1 034	1 496


Manba: [18–21] asosida muallif tomonidan tuzilgan. 2022–2023-yillar uchun kartalarga tushumlar e’lon qilingan o‘sish sur’atlaridan teskari hisoblangan, 2024-yil naqdlashtirish ulushi 226 trln so‘mni 1 034 trln so‘mga nisbati sifatida hisoblangan.

2-jadval ma’lumotlari asosida hisoblangan Pirson korrelyatsiya koeffitsienti terminal tushumlari ulushi bilan naqd pulning pul massasidagi ulushi o‘rtasida

–0,95 ni, terminal tushumlari ulushi bilan kartalardan naqdlashtirish ulushi o‘rtasida esa –0,99 ni tashkil etdi. Chiziqli baholashga ko‘ra, terminal tushumlari ulushining 1 foiz bandga oshishi naqd pul ulushining taxminan 0,5 foiz bandga kamayishi bilan birga kechgan. To‘rtta kuzatuv asosidagi bu natija statistik xulosa uchun yetarli emasligini alohida ta’kidlash lozim, ammo yo‘nalish nazariy kutilmaga to‘liq mos keladi: raqamli to‘lovlarning kengayishi bilan naqd pulga bo‘lgan talab qisqarib bormoqda.

Shu bilan birga, raqamlar orqasidagi tuzilmaviy jihatlarga ham e’tibor qaratish kerak. Birinchidan, bank kartalariga tushgan mablag‘lar 2025-yilda 1 496 trillion so‘mga yetib, bir yilda 45 foizga o‘sgan bo‘lsa-da, mutlaq hajmda kartalardan 279 trillion so‘m naqd shaklda yechib olingan [18]. Bu aholining bir qismi kartani hali ham “ish haqini olish vositasi” sifatida ko‘rib, kundalik xaridlarni naqd pulda amalga oshirishini anglatadi. Ikkinchidan, 2025-yilda banklarning naqd pul aylanmasi 1 250 trillion so‘mni tashkil etib, 24 foizga oshgan [18]. Demak, iqtisodiyotning umumiy o‘sishi sharoitida naqd pulning nisbiy ulushi kamaysa-da, uning mutlaq hajmi hali o‘sishda davom etmoqda.

Bu holatni institutsional nuqtai nazardan izohlashda ikki xil kuchni farqlash maqsadga muvofiq. Bir tomondan, raqamli to‘lovlar o‘lchash va himoya xarajatlarini kamaytirib, rasmiy sektorda faoliyat yuritishning nisbiy nafini oshiradi. Bitim izi saqlanib qolganda tadbirkor kredit tarixini shakllantiradi, bank krediti va davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, xuddi shu kuzatuv imkoniyati soliqdan yashirinishni afzal ko‘radigan subyektlar uchun raqamli to‘lovni “xavfli” qiladi. Shuning uchun yashirin iqtisodiyotning qisqarishi faqat to‘lov texnologiyasiga emas, balki rasmiy sektorda qolishning foydasi va xarajatlari nisbatiga bog‘liq [7; 8]. Bu mexanizm 2-rasmda umumlashtirilgan.



Manba: muallif tomonidan [4; 5; 7; 10; 12] asosida ishlab chiqilgan.

2-rasm. Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

2-rasmda ko‘rsatilganidek, raqamli to‘lov infratuzilmasi transaksiya xarajatlarining uchala guruhini ham pasaytiradi, bu esa ikki oraliq natijaga olib keladi: operatsiyalarni kuzatish imkoniyati ortadi va rasmiy sektorda qolishning nisbiy nafi oshadi. Yakuniy natija, ya’ni yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishi va soliq bazasining kengayishi, yuqori qismdagi institutsional muhitga bog‘liq. To‘lov qonunchiligi, iste’molchi huquqlari himoyasi, soliq ma’murchiligining adolatliligi va kiberxavfsizlik darajasi past bo‘lsa, texnologiya imkoniyati to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, kartali to‘lovlarning QQS tushumlariga ijobiy ta’siri soliq ma’murchiligi yetarlicha samarali bo‘lgan sharoitda namoyon bo‘ladi [12; 13].

O‘zbekiston amaliyotida bu mexanizmni kuchaytirishga qaratilgan bir qator choralar ko‘rilgan: onlayn nazorat-kassa texnikasi va elektron cheklar joriy etildi, kichik tadbirkorlar uchun QR orqali to‘lov qabul qilish soddalashtirildi, bank kartalari va mobil ilovalar orqali davlat xizmatlariga to‘lov qilish imkoniyati kengaytirildi [1; 2]. Ayni paytda kartalardan naqd pul yechish hajmining saqlanib qolayotgani shuni ko‘rsatadiki, aholining bir qismi uchun naqd pul hamon arzonroq va ishonchliroq hisob-kitob vositasi bo‘lib qolmoqda. Bu esa institutsional ishonch va savdo nuqtalaridagi komissiya siyosati masalalarini birinchi o‘ringa chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, raqamli to‘lov tizimlari transaksiya xarajatlarining barcha guruhlarini, ayniqsa o‘lchash va shartnoma ijrosini nazorat qilish xarajatlarini pasaytiradi hamda bitimlarning izini saqlab, yashirin iqtisodiyotga qarshi institutsional to‘siq vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, O‘zbekistonda 2022–2025-yillarda terminal va mobil ilovalar orqali tushumlar ulushi 34 foizdan 43 foizga oshgani holda naqd pulning pul massasidagi ulushi 22,3 foizdan 18,1 foizga, kartalardan naqdlashtirish ulushi esa 26,9 foizdan 19 foizga qisqargan. Ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi kuchli teskari bog‘liqlik nazariy kutilmaga mos keladi. Uchinchidan, naqd pul aylanmasining mutlaq hajmi o‘sishda davom etayotgani raqamlashuv jarayoni hali yakunlanmaganini va uni chuqurlashtirish institutsional omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: savdo nuqtalari uchun ekvayring komissiyasini kichik va mikrobiznes uchun differensiallashtirish hamda naqd pul bilan ishlashning yashirin xarajatlarini (inkassatsiya, saqlash, yo‘qotish xavfi) tadbirkorlarga ochiq ko‘rsatib berish; elektron chek asosidagi soliq imtiyozlari va keshbek mexanizmlarini norasmiy sektor eng ko‘p tarqalgan xizmat sohalariga, jumladan qurilish, ta’mirlash va xususiy ta’lim xizmatlariga kengaytirish; raqamli to‘lovlarda iste’molchi huquqlarini himoya qilish, xususan, xato yoki firibgarlik yo‘li bilan o‘tkazilgan mablag‘larni qaytarish tartibini soddalashtirish orqali tizimga bo‘lgan ishonchni oshirish; Markaziy bank statistikasida naqd pul talabini mintaqalar va sohalar

kesimida e'lon qilish orqali yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uchun axborot bazasini kengaytirish.

Kelgusi tadqiqotlarda naqd pul talabi tenglamasini uzoqroq davr va oylik ma'lumotlar asosida ekonometrik baholash, shuningdek, raqamli to'lovlarning hududiy tafovutlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 1-noyabr, O'RQ-578-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

3. Coase R.H. The Nature of the Firm // Economica. New Series. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405.

4. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. – New York: Free Press, 1985. – 450 p.

5. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.

6. Tanzi V. The Underground Economy in the United States: Annual Estimates, 1930–80 // IMF Staff Papers. – 1983. – Vol. 30, No. 2. – P. 283–305.

7. Schneider F., Enste D.H. Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences // Journal of Economic Literature. – 2000. – Vol. 38, No. 1. – P. 77–114.

8. Medina L., Schneider F. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? // IMF Working Paper. – 2018. – No. WP/18/17. – 76 p.

9. Rogoff K.S. The Curse of Cash. – Princeton: Princeton University Press, 2016. – 283 p.

10. Jack W., Suri T. Risk Sharing and Transactions Costs: Evidence from Kenya's Mobile Money Revolution // American Economic Review. – 2014. – Vol. 104, No. 1. – P. 183–223.

11. Suri T., Jack W. The Long-Run Poverty and Gender Impacts of Mobile Money // Science. – 2016. – Vol. 354, No. 6317. – P. 1288–1292.

12. Immordino G., Russo F.F. Cashless Payments and Tax Evasion // European Journal of Political Economy. – 2018. – Vol. 55. – P. 36–43.

13. Hondroyiannis G., Papaoikonomou D. The Effect of Card Payments on VAT Revenue: New Evidence from Greece // Economics Letters. – 2017. – Vol. 157. – P. 17–20.

14. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank, 2022.

15. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: Darslik. – 4-nashr, qayta ishlangan. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.

16. Шаститко А.Е. Новая институциональная экономическая теория. – 4-е изд. – М.: ТЕИС, 2010.

17. Davidson S., De Filippi P., Potts J. Blockchains and the Economic Institutions of Capitalism // Journal of Institutional Economics. – 2018. – Vol. 14, No. 4. – P. 639–658.

18. 2025-yilda naqdsiz pul tushumlari banklarda 43 foizgacha, savdo va xizmatlar sohasida 48 foizgacha o‘sdi — Markaziy bank // Gazeta.uz. – 2026-yil 20-fevral. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/20/cash-noncash/.

19. Muomaladagi naqd pul ulushi yana qisqarmoqda, kartalardan naqd pul yechib olish kamaymoqda — MB // Gazeta.uz. – 2024-yil 7-fevral. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/07/money-turnover/.

20. Muomaladagi naqd pul ulushi qisqardi, kartalarga pul o‘tkazmalari va valyuta xaridi oshdi — Markaziy bank // Spot.uz. – 2025-yil 15-yanvar. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/01/15/cash-circulation/.

21. 2021 yilda muomaladagi naqd pul ulushi 3 foizga kamaydi // Kun.uz. – 2022-yil 20-yanvar. – URL: https://kun.uz/news/2022/01/20/2021-yilda-muomaladagi-naqd-pul-ulushi-3-foizga-kamaydi.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy